

O'ZBEK VA ARAB TILLARIDAGI SON KATEGORIYASINING CHOG'ISHTIRMA
TAHLILI

Raimberdiyeva Gulnora Husan qizi

O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili) yo'nalishi 2-bosqich talabasi
Ilmiy maslahatchi: A. To'xtanazarov

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiyl Tilshunoslikda son kategoriyasi tushunchasi va uning ifodalanishi to'g'risida qisqacha ma'lumot beriladi. Shuningdek, o'zbek va arab tillaridagi ot so'z turkumi doirasida mazkur grammatik kategoriya ta'sirida yuzaga keluvchi qator o'xshashlik va farqlar tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Grammatik kategoriya, singularia tantum, pluralia tantum, son kategoriyasi, birlik, ikkilik, ko'plik, siniq ko'plik, o'zak, negiz, qo'shimcha.

Grammatik son kategoriyasi odatda birlik va ko'plikdagi formalarning oppozitsiyasidan tashkil topadi. Birlik turkiy tillarda nol ko'rsatkichli bo'lsa, ko'plik **-lar** va uning turli variantlari yordamida ifodalanadi, lekin turkologiyada turkiy tillardagi grammatik son kategoriyasi formalarini boshqacha ifodalash ham mavjud.[9;34] Birlik soni predmet va hodisalarning yakkaligini anglatса, ko'plik ularning birdan ortiqligini, soni noaniqligini ifodalaydi. Ba'zi tillarda birlik ko'plikdan tashqari juftlikni anglatuvchi ikkilik va yana ba'zi tillarda uchlik soni ham uchraydi.

Son kategoriyasi faqat otga xos bo'lmay, sifat, olmosh va fe'llarda ham ifodalanishi mumkin. Lekin uning grammatik ifoda uslublari so'z turkumlari va tillarda bir xil emas.

O'zbek, rus, ingliz, nemis, fransuz tillarida mazkur kategoriya bir-biriga zid bo'lgan ikki xususiy son - birlik va ko'plikdan tashkil topadi.

O'zbek tilida noaniq ko'plik **-lar** affiksal morfemasi bilan ifodalansa, aniq ko'plikda, ya'ni otning oldida son kelganda ot oxiridagi **-lar** qo'shimchasi tushib qoladi.[4;76] Masalan, o'nta kitoblar tarzidagi birikmada odatdagи ko'plikni ifodalovchi **-lar** qo'shimchasi noto'g'ri ishlatilgan, uslubiy jihatdan to'g'risi o'nta kitob bo'lishi kerak.[5;43] Grammatik son kategoriyasi tildagi bir necha so'z turkumida o'z aksini topsa ham, uning nutqdagi vazifasi bir xil emas. Masalan, otlarda son birlik va ko'plikni anglatса, sifat va fe'llarda u belgi va ish-harakatning miqdorini ko'rsatmaydi. Ma'lumki, sifat ham, fe'l

ham nutq jarayonida ot bilan uzviy bog‘langan bo‘ladi. Sifat va fe’ldagi son bu so‘z turkumlarining qaysi shakldagi ot bilan munosabatga kirishishiga bog‘liq: ular ko‘plikdagi ot bilan bog‘lansa, unda o‘zлari ham ko‘plikda kelishlari lozim.[4;77]

Tillarda faqat birlikda va faqat ko‘plikda ishlatiladigan so‘zlar ham mavjud: **ко‘з, SUV, un, “очки”, “духи”**. Faqat birlikda qo‘llanadigan so‘zlarga nisbatan **singularia tantum**, faqat ko‘plikda ishlatiladigan so‘zlarga nisbatan esa **pluralia tantum** tushunchalari qo‘llaniladi.[7;44]

Odatda, birlikda qo‘llanadigan otlar:

1. Donalab sanalmaydigan predmet nomlari: kerosin, sut, un, yog‘, suv kabi;
2. Juft predmetlarning nomlari: zirak, etik;
3. Belgi nomlari, ish-harakat, faoliyat-jarayon va mavhum tushunchalarni bildiruvchi otlar: yaxshilik, do‘slik, loygarchilik, tezlik, yugurish, yozish, sevgi, aql, muhabbat kabi;
4. Atoqli otlar: Toshkent, Navoiy, Amir Temur;
5. Juft otlar: o‘tin-ko‘mir, qozon-tovoq (bunday otlarning o‘zida ko‘plik ma’nosi anglashilib turadi);
6. Insonning yakka va juft organlari: bosh, ko‘z, yurak;

Ko‘plik **-lar** qo‘shimchasi bilan ifodalansa, bunga **morfologik yo‘l** deyiladi. Masalan, uylar, do‘silar, binolar. Shuningdek, birlikdagi ot oldidan birdan yuqori bo‘lgan saboq sonlarni yoki daraja-miqdor ravishlarini: ko‘p, ancha kabi so‘zлarni qo‘shish yordamida ham ko‘plikni ifodalash mumkin. Bunga esa **sintaktik yo‘l** deyiladi. Masalan, ko‘p odam, yigirmata mакtab, ancha yillar kabi.

Shuni ta’kidlash kerakki, ko‘plik shakli sanaluvchi **-lar** otlarga qo‘shilib doimo ko‘plikni bildiravermaydi. U birlik ma’nosini o‘zgartirmasligi ham mumkin. Bu vaqtida **-lar** hurmat, tasviriylikni kuchaytirish, ta’sirchanlikni oshirish ma’nolarida qo‘llaniladi. Masalan, ko‘zlarimga ishonmayman. Bu jumladagi ko‘zlarimga so‘zini birlik shaklga- ko‘zimga shakliga almashtirib ko‘ring. Ikkinci holat bilan birinchi holat bir xil ma’noni- birlik ma’nosini (bir kishining ko‘zini) ifodalasa ham, bu ikki holat ta’sirchanlik, ifodalilik belgisiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Birinchisida yuqoridagi belgilar bor, ikkinchi holatda esa yo‘q. Yana solishtiring:

*Bolalarning shovqinidan boshlarim og‘rib ketdi- bolalarning shovqinidan boshim og‘rib ketdi. Har ikkala holatda ham bir kishining boshi haqida fikr yuritiladi, lekin birinchi gapda boshlarim so‘zidagi **-lar** ko‘plikni bildirmasdan,*

bosh so'zining ma'nosini kuchaytirish, ta'kidlash vazifasini bajaradi. Bunday ma'no esa ikkinchi holatda yo'q.

Donalab sanalmaydigan narsa va hodisalarni bildiruvchi otlar birlik shaklga kelsa ham, aslida jamlikni bildiradi. Masalan, Ko'chaga qum to'kilgan yoki Ariq to'la suv, ichgani tashna, bolam.

Bunday so'zlar ko'plik shaklini olganda ko'pincha narsa va hodisaning xilma-xil ekanligini bildiradi. Suvlari (gazli suv, mineral suv kabi); bozordagi unlar. Ba'zan tasviriylik, ifodalilikni kuchaytiradi: ko'z yoshini artdi- ko'z yoshlarini artdi.

Ko'plik atoqli otlarga qo'shilganda o'zi qo'shilgan otning ko'pligini emas, balki uning boshqalar bilan birgalikda ekanligini yoki geografik nomlarga qo'shilganda shu geografik joyning kengroq, atrofdagi joylar bilan birlikda ekanligini bildiradi: *Olimjonlar kelishdi* (bir nechta Olimjon emas, Olimjon va uning yaqinlari); *Mirzacho'llar obod bo'ldi* (Mirzacho'l va unga yaqin joylar).

Qarindoshlik bildiruvchi so'zlarga ko'plik shakli qo'shilib hurmat ma'nosini bildiradi. Bunday vaqtida egalik qo'shimchasi bilan birgalikda qo'llaniladi. Qaysi shaxsdagi egalik qo'shimchasi bilan bilan qo'llanilishiga ko'ra ko'plik va egalik qo'shimchalarining o'rinalashishi farqlanadi:

1. I yoki II shaxs egalik qo'shimchasi bilan kelganda ko'pincha **egalik qo'shimchasi oldin, ko'plik qo'shimchasi esa undan keyin** keladi: Masalan, Oyimlar keldilar. Dadanglar aytdilar. Opamlar salom aytdilar. Agar bu tartib o'zgarib, ko'plik shakli oldin, egalik keyin kelsa shaxsning ko'pligini yoki jamlikni ifodalash mumkin: Qiyoslang: *Opalarim kelishdi*.

2. Ko'plik shakli III shaxs egalik qo'shimchasi bilan birgalikda qo'llanilganda, **ko'plik shakli oldin, egalik shakli keyin keladi** va ko'plik shakli hurmat ma'nosini ifodalaydi. Masalan, Xayriniso, dadamning opalari bo'ladilar.

Ko'plik sonining hosil bo'lishi

Morfologik usul	Ota-onalar
Sintaktik (yoki leksik) usul	Ko'p ota-onsa, ko'p odam, yigirmata kitob, ancha yil, ming-ming daraxt
Morfologik-sintaktik (yoki leksik) usul	Ko'p ota-onalar, ko'p odamlar, ancha yillar, bir qancha xonadonlar

-lar qo'shimchasi uslubiy jihatdan quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:



Misollar	Ma'nolar
Dadamlar keldilar, opamlar salom aytdilar	hurmat ma'nosи
Mirzacho'llar obod bo'ldi	shu geografik joyning kengroq, atrofdagi joylar bilan birlikda ekanligi
Olimjonlar kelishdi	jamlash, umumlashtirish
Ko'z yoshlarini artdi	tasviriylik, ifodalilikni kuchaytirish
Boshlarim og'rib ketdi, yuraklarim siqilib ketdi	tasviriylik, ifodalilikni kuchaytirish
Do'konga yog'lar, unlar keltirildi	narsalarning turini bildirish
Janoblari kelibdilar-da!	kinoya
Mart oylarida	noaniqlik
Tillaring kesilsin!	salbiy munosabat

-**lar** qo'shimchasi sof fe'lga qo'shilganda tuslovchi tarkibida keladi:
Turnalar, uchinglar![6;67]

Arab tilida ism turkumidagi so'zlar uchta grammatik sonda turlanadi:

1. Birlik- مفرد
2. Ikkilik- تثنية
3. Ko'plik- جمع [2;54]

Arab tilidagi birlik son aksariyat tillardagi singari nol ko'rsatkich (maxsus shakl ko'rsatkichining yo'qligiga) ega. Narsa yo tushuncha ikkita bo'lsa, ikkilik shakli (المثنى), ikkidan ortiq bo'lsa, ko'plik shakli (المجموع) ishlataladi.

Ismlarning ikkilik son shaklini yasash uchun so'z oxiriga آن qo'shimchasi qo'shiladi:

- ikki ustoz – أستاذان – أستاذ
- ikki opa (singil) – أختان – أخت
- ikki tikuvchi ayol – خياطتان – خياطة
- ikki xona – حجرتان – حجرة
- ikki tarvuz – بطيختان – بطيخ

Ikkilik sondagi ismga aniqlik artikel “ال” qo'shilsa ham, oxiridagi qo'shimchasi o'zgarmaydi. Masalan:

المعلمتان – معلمتان ، المعلمان – معلمان

اليدان – يدان ، الفاحتان – تقاحتان

Oxirida ى (alif maqsura) bo'lgan ismlardan ikkilik "alif maqsura" o'rniga so'zlardan ikkilik son shakli "tanvin kasra"ga tugagan qo'shimchasini qo'shib yasaladi. Masalan:

الفتیان – الفتی ; فتیان – (yigit) فتی

المعنیان – المعنی ; معنیان – (ma'no) معنی

قاضٍ (qozi), محامٍ (himoyachi, advokat) kabi "tanvin kasra"ga tugagan so'zlardan ikkilik son shakli "tanvin kasra" o'rniga یان qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi: قاضیان , محامیان .

Oxiri "tanvin fatha"ga tugagan so'zlardan ikkilik "وان" qo'shimchasini qo'shib yasaladi. Masalan:

عصاً (tayoq, hassa) – العصا ، عصوان – عصاً

Oxirida ء yoki ئ bo'lgan ismlar muzakkarr jinsida bo'lsa ئ (hamza) saqlanib qoladi: ابتداءان – (uchrashuv) لقاءان – (boshlanish) . Agar ism muannas jinsiga tegishli bo'lsa, so'z oxiridagi hamza "و" harfiga almashtiriladi: سماء (samo) سماوان – سماء

صحراء (sahro) زرقاء (moviy – muannas) – زرقاء

أب (ota) va أخ (aka, uka) so'zlaridan ikkilik son shakli yasalganda ham "و" harfi qo'shiladi: أبوان , أخوان [1;70]

Arab tilida gap ikkidan ortiq predmet yoki shaxs to'g'risida ketganda ko'plik son ishlatiladi. Ko'plik son o'zining morfologik xususiyatiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. To'g'ri ko'plik.

2. Siniq ko'plik.

To'g'ri ko'plik

So'zning oxiriga ma'lum qo'shimchalarni qo'shish orqali hosil bo'ladigan ko'plik to'g'ri ko'plik deyiladi. To'g'ri ko'plik quyidagicha hosil bo'ladi:

1. Birlik muzakkarr jins otlar oxiridagi tanvinni olib tashlab, - ۋىن – فلاح qo'shimchasini qo'shish bilan. Masalan:

معلم mu'allimun o'qituvchi, - معلمون mu'allimuuna o'qituvchilar

فلاح fallaahun dehqon, - فلاحون fallaahuuna dehqonlar.

2. Bu qo'shimcha yordamida ba'zan erkak kishini bildirmaydigan so'zlardan ham ko'plik hosil qilish mumkin. Masalan:

سنّة yillar

3. Birlik muannas jins so'zlardan -atun qo'shimchasini olib tashlab, - aatun qo'shimchasini qo'shish bilan. Masalan:

معلمة mu'allimatun o'qituvchi ayol

معلومات mu'allimaatun o'qituvchi ayollar

فلاحة fallaahatun dehqon ayol

فلاحات fallaahaatun dehqon ayollar

4. Bundan tashqari jonsiz predmetni ifodalab kelgan birlik muannas va muzakkarr so'zlardan ham muannas jins to'g'ri ko'plik hosil qilish mumkin. Masalan:

لغة lug'atun til – لغات lug'aatun tillar

محصول mahsuulun hosil – مصروفات mahsuulaatun hosillar

5. Agar muannas jins otlar ئەي – yoki ئى – tugagan bo'lsa, hamza ئى ga, ئى esa يى ga aylanadi. Masalan:

صحراء sahraa'u cho'i صحراءات sahraavaatun chollar

ذكرى zikraa esdalik ذكريات zikraayaatun esdaliklar. [8;62]

Siniq ko'plik

So'zning o'zagini tashkil etuvchi undoshlar orasidagi unlilarning o'zgarishi, noo'zak undoshlarning kirishi, umuman, so'z ichki tarkibining o'zgarishi natijasida hosil bo'luvchi ko'plik siniq ko'plik deyiladi. Masalan:

كتاب – كتب – kitoblar, ناس – انسان – odamlar.

Siniq ko'plik har bir so'zdan o'ziga xos vaznda hosil bo'ladi. Bu vaznlar anchagina bo'lib, ularni ma'lum qoida asosida tartibga solib bo'lmaydi. Birlik sonda bir xil vaznda bo'lgan so'zning ko'pligi har xil vaznda bo'lishi yo birlikda har xil vaznda bo'lgan so'zlarning ko'pligi bir xil vaznda bo'lishi mumkin. [3;40] Shuningdek, o'zbek tilida singularia tantum, ya'ni odatda faqat birlik shakliga ega bo'lgan aksariyat so'zlarning arab tilida ko'plik shakliga ega ekanligi ham e'tiborga molik. Masalan:

ماء (suv) – ماء

ملح (tuz) – أملأح

قمر (Oy) – قمر

شحوم (yog') - شحوم va h.k. Bu so'zlar o'zbek adabiy tilida aksariyat hollarda faqat birlikda ishlataliladi.

Xulosa qilib aytganda, dunyodagi barcha tillar, ularning qaysi til oilasiga mansubligidan qat'i nazar son kategoriyasiga ega. Zero, usiz nutqni aniq, tushunarli va ba'zi o'rinnarda, ta'sirchan bayon etib berishning deyarli iloji yo'q. Ammo tan olish kerakki, umumiyl tilshunoslikda son kategoriyasining mavjudligi barcha tillarda u bir xil ifoda etiladi yoxud aynan bir xil vazifani bajaradi degani emas. Xolbuki, ayrim tillarda ko'plik shakli nafaqat miqdorni, balki hurmat, kinoya, ta'kid, kuchaytiruv, narsa va predmetning turi, jamlov singari qator ma'no nozikliklarini ifodalashda ham faol qo'llanilishini kuzatamiz.

Yuqorida turkiy tillar oilasiga kiruvchi o'zbek tili hamda xom-som lingvistik oilasiga mansub arab tillaridagi son kategoriyasining ifodalanishi, shuningdek, u anglatuvchi ma'no-mazmunni o'zaro qiyoslash natijasida ular orasidagi qator umumiy va ayri jihatlarni uchratish mumkin. Xususan, o'zbek tilida otlar tarkibidagi ko'plik va egalik shakllari o'rnini o'zgartirish orqali turli ma'noviy tovlanishlar kuzatiladi. Ba'zi o'rinnarda esa hatto ko'plik shakli ko'plik ma'nosiga emas, balki birlikka ishora qilishi ham mumkin va bu holatlarda u jumlaning tasviriyligi, badiiyligini oshirishga xizmat qiladi.

Arab tilidagi ikkilik grammatic shaklining mavjudligi esa o'zbek tili uchun begonaligi jihatidan xarakterlidir. Bundan tashqari, mazkur tilda o'zbek tilidan farqli o'laroq sonda turlanayotgan ot bilan o'zaro aloqadagi sifat hamda fe'llarda ham otning soni yaqqol aks etadi. Qolaversa, arab tilida faol qo'llaniluvchi jins kategoriysi ta'sirida ko'plik shaklining muzakkars (erkak) va muannas (ayol) jinsiga mansub so'zlar uchun alohida ikki xil varianti mavjud. O'zbek tilida esa jins kategoriysi yo'qligi tufayli barcha ismlar bir xil ko'plik shakli (-lar) orqali mazkur ma'noni ifodalaydi. Shu bilan birga, son kategoriysi vositasida o'zbek tilining agglutinativ, arab tilining esa flektiv tabiatini to'laligicha namoyon bo'ladi. Zero, arab tilidagi asos tarkibining o'zgarishi orqali ko'plik ma'nosining ifoda etilishi o'zbek tilida uchramaydi.

Har ikkala til uchun umumiy xususiyat sifatida birlik ma'nosining nol ko'rsatkichga ega ekanligi, shuningdek, arab tilida ham o'zbek tilidagi singari ko'plik shaklini yasovchi affikslarning mavjudligi va boshqa bir qancha jihatlarni keltirishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdujabborov A. Arab tili. -Toshkent: Tafakkur, 2020.
2. Hasanov M. Arab tili. -Toshkent: Global books, 2019.
3. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammaticasi. -Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997.
4. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.
5. O'rta ta'lif muassasalarining 10-sinf va o'rta maxsus, kasb-hunar, ta'limi muassasalari o'quvchilari uchun darslik. Birinch nashr. -Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.
6. Rasulova N. Ona tilidan ma'ruzalar. -Toshkent: Nurafshon ziyo yog'dusi, 2018.

**“FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS
INTERDISCIPLINARY SCIENCES”**

ITALIA

7. Turniyozov N. Tilshunoslikka kirish (ma'ruzalar matni). -Samarqand, 2005.
8. Xalidov B. Arab tili darsligi. -Toshkent: Fan, 2007.
9. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2005.